

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14003734>

**TURKIY TILLAR LEKSIKASI.
(BIR NECHTA TURKIY TILLAR MISOLIDA)**

**Ikhbol Shamsudinova
Ravshanova Tursuntosh,
Abdullayeva Shaxnoza**
TerDU talabalari

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada turkiy tillarning leksik xususiyatlari, leksikasida aks etgan soʻzlar talqini beriladi. Maqola davomida bir nechta turkiy tillarga xos leksik jihatlar oʻzaro tahlilga olinadi. Turkiy tillar leksikasida uchraydigan baʼzi soʻzlarning tillar miqyosidagi holatlari koʻrib chiqiladi.*

***Kalit soʻzlar:** turkiy tillar, moʻgʻul tili, leksik qatlam, oʻz qatlam, oʻzlashgan qatlam, adabiy til, arabcha, forsha, tojikcha, xitoycha, ruscha, lugʻat tarkibi va boshqalar.*

Turkiy tillar leksikasi mazkur tilning qaysi dialektlar asosida shakllanganini koʻrsatishi bilan diqqatga sazovor. Shuningdek, maʼlum bir davrga oid nutq xususiyatlari, xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti, dunyoqarashi, xullas, insoniyatning moddiy, maishiy va maʼnaviy hayoti bilan bogʻliq hamma jihatlar uning leksikasida aks etadi. Maʼlum asarning leksik qatlami oʻsha davr adabiy til xususiyatlarini, boshqa xalqlar bilan madaniy, siyosiy aloqalarni koʻrsatish uchun hammasining omillardan biri sanaladi. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tarixi ham ilk bor leksikada aks etadi. Masalan, ayrim olimlar qadimgi turkiy til bilan dunyodagi eng qadimgi til boʻlgan shumer tili oʻrtasidagi qarindoshlik aloqalarini asoslamoqchi boʻlganlarida ham har ikkala tildagi umumiy leksik qatlam va leksik

ma'noga tayanadilar. Shumer- ne, qadimgi turk - na; shuner-me, qadimgi turk- man, ban; shumer-ze, qadimgi turk- San va hokazolar.

Turkiy tillarni bir til oilasiga birlashtiruvchi va boshqa til oilalardan farqlovchi xususiyatlaridan biri leksik tarkibning bir-biriga yaqinligidan hamda grammatik qurilishining mushtarakligidir. Shuning uchun chuvash va yoqut tillaridan boshqa hamma turkiy tillar bir-biriga tushunarlidir. Tildagi barcha so'zlar uning lug'at boyligini tashkil etadi. Tilning lug'at boyligi ikki manba- ichki va tashqi manba orqali ortib boradi. Boshqa tillardan so'z olish natijasida turkiy tillarda ham o'z qatlam va o'zlashgan qatlam farqlanadi. O'z qatlamga turkiy tillarga oid ,shuningdek, turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar kiradi. Turkiy tillar lug'at tarkibida umumturkiy so'zlar asosiy miqdorni tashkil etadi: tosh, tog', yer, bosh, suv, til, kishi, bola, oq, qora, qizil, ko'k, sariq, bir, ikki, olti, men, sen, shu, bu, kel, ol, tur,qara,indamay, erta, ilgari kabi. Turkiy tillardagi yunoncha, arabcha, forscha, tojikcha, xitoycha, mo'g'ulcha, ruscha so'zlar o'zlashgan qatlamni tashkil etadi. Turkiy tillardagi o'zlashgan qatlamning asosiy qismi arab, fors-tojik, rus tillaridan kirgan so'zlardan iborat. Ammo qadimgi turkiy til leksikasini faqat o'z qatlam asosida kuzatish mumkin. Qadimgi turkiy tilning o'zlashgan qatlam leksikasini A. Gaben quyidagi guruhlariga bo'ladi.

1. Mo'g'ulcha so'zlar.
2. Xitoycha so'zlar.
3. Qadimgi forscha so'zlar.
4. Qadimgi hindcha so'zlar.

N. Abdurahmonov qadimgi turkiy tilning lug'aviy qatlamini mavzusi jihatidan o'n ikki guruhga ajratib talqin etadi. Tadqiqotlarda berilgan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda, qadimgi turkiy til taraqqiyotining asosiy bosqichlarida keng iste'molda bo'lgan so'zlarni bir nechta guruhlariga ajratish mumkin. Qadimgi turkiy til lug'at tarkibida mavjud so'zlar o'sha davrda yashagan urug' va qabilalarning barchasiga tegishlidir. Ular turkiy xalqlarning yashash tarzi, mashg'uloti, harbiy - jug'rofiy sharoiti, madaniyati qabilalarning aks ettiruvchi so'z va atamalaridir.

Qarindoshlik atamaları bir nechta turkiy tillar misolida tahlil qilinganida quyidagi o'zgarishlar va o'xshashliklar kuzatiladi. Masalan, ota so'zi turli tillarda turlicha ishlatiladi. O'zbekcha-ota, ozarbayjoncha-ata, oltoycha-ata, qozoqcha-ata, hakasda-ada, badanga, chuvashda-atte, tuvada-apa tarzida uchraydi. Opa so'zi ozarbayjonda-apa, turkchada-apa, hakascha-appa, gagauzcha-uchba tarzida talaffuz qilinadi va qo'llaniladi. Agarda kelin so'zini tahlilga oladigan bo'lsak uning qumiqchada-kelin, tatarchada-delin, no'g'aychada-kilen, uyg'urchada-kin, hakaschada-kinnit, chuvashchada-kiyit, yoqutchada-gelin tarzida ishlatilishini ko'rishimiz mumkin.

Ayrim parranda nomlarini tahlil qilganimizda ularning turkiy tillardagi turlicha shakllarini ko'rishimiz mumkin. Turna so'zi Tuva tilida-duruna, ozarbayjoncha-durna, turkcha-turna, qozoqcha-tirna, boshqirdcha-tarna, yoqutchada-turuya tarzida qo'llaniladi. Bundan tashqari tabiat hodisalarini anglatuvchi atamalar ham turkiy tillarda turlicha ifodalanadi. Misol uchun havo so'zini oladigan bo'lsak, mazkur so'z ozarbayjon, boshqird, qoraqalpoq qumiq, tatar, turk, turkman, o'zbek, uyg'ur tillarida hava/havo tarzida, yozuvdagi shakllari ozarbayjon, uyg'ur, tatar tillarida hava, boshqircha esa haya tarzida, qumiqda-gava, turkmanchada-xova, o'zbekchada-havo, qizoqcha, qirg'izcha, no'g'aychada esa ava tarzida qo'llanilishini ko'rish mumkin.

Turkiy tillarda fe'llarning ham qo'llanish holatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularda ham yuz beradigan ba'zi bir o'zgarishlarga guvoh bo'lishimiz mumkin. Masalan, bormoq fe'lini oladigan bo'lsak, mazkur fe'l ozarbayjon, boshqird, oltoy, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz tillarida bar tarzida ifodalanadi. Ketmoq fe'li esa ozarbayjon, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, no'g'ay tillarida ket tarzida, oltoy tilida bar tarzida, boshqird tilida kit tarzida, qumiq tilida get tarzida qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, barcha turkiy tillarning leksik qatlamida qaysidir ma'noda o'xshashliklar mavjud. Tillar leksikasidagi o'zgarishlar ularni talaffuz qilish jarayonidagi ayrim fonetik o'zgarishlar hisobiga o'zgarib boravergan va shu tarzda tillarda saqlanib qolgan. Hozirgi kundagi o'zbek adabiy tili bilan qiyoslaydigan bo'lsak, ulardagi tafovut deyarli sezilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Y.Abdurasulov Turkiy tillarning qiyosiy- tarixiy grammatikasi Tosh.,2009.
2. A.Rafiev Turkiy tillarning qiyosiy- tarixiy grammatikasi Tosh.,2004- yil
3. Dadaboyev H , Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy- tarixiy grammatikasi Tosh ..,2015-yil
4. Is'hoqov M, Sodiqov Q, Omonov Q.Mangu bitiglar - Tosh., 2009-yil.
5. Serebrennikov B, Gadjieva N Sravnitelno- istorocheskaya grammatika tyurkskix yazikov M.,1986-yil